kompyuterlar» (Mening kompyuterlarim), **«Setevoe okrujenie»** (Tarmoq muxiti), **«Korzina»** (Savat), **«Vqxod v Internet»** (Internetga chikish). Lekin Siz, xurmatli o'quvchi, zaruriyatga qarab, ish stolida foydalanayotgan ilovalaringiz yorliqlarini chikarib olishingiz mumkin. Buning uchun sichqoncha ko'rsatkichini stolning ixtiyoriy bo'sh joyiga olib borib, sichqonchani o'ng tugmachasini bosish zarur. Namoyon bo'lgan buyruqlar ro'yxatida **«Sozdatg'»** (Yaratish) buyrug'ini tanlab, navbatdagi paydo bo'lgan ro'yxatda **«Yarlqk» (Yorliq)** katorini bosing. Ekranda **«Sozdanie yarlqka»** (Yorliqni yaratish) savol-javob oynasi namoyon buladi, unda **«Obzor»** (Ko'rib chikish) tugmachasini faollashtirish kerak va paydo bo'lgan jildlar va fayllar ro'yxati ichidan kerakli ilovani buyruq faylini topish zarur. Oyna paydo bo'lgandan keyin, agar kidirilayotgan element to'g'ri bo'lsa **«Dalee» (Keyingi)** tugmachasini bosish kerak.

Keyingi oynada **«Gotovo»** (Tayyor) tugmachasini bosing. SHu yerning o'zida belgining nomini o'zgartirish mumkin. Natijada belgi tayyor buladi.

Agar ish stoli turli Ilovalar va Dasturlar belgilari bilan tulib ketsa, uni «tozalash» mumkin. Buning uchun ko'rsatkichni ortikcha elementga olib borib, sichqonchani chap tugmachasini bosish hamda tugmachani qo'yib yubormasdan, ko'rsatkichni **«Korzina»** (Savat) ustiga siljitish zarur, **«Korzina»** (Savat)ning ustida sichqonchani tugmachasini qo'yib yuboring. «Korzina»ni tozalash uchun **«Fayl»** menyusidagi **«Ochistitg' korzinu»** (Savatni tozalash) buyrug'i ustida sichqonchani chap tugmachasini bir marta bosing.

Masalalar paneli va bosh menyu bo'limlari

Masalalar panelida chap tomonda **«Pusk»** tugmachasi, o'ng tomonda soat, klaviaturaning indikatorlari aks ettirilgan. Agar sichqoncha ko'rsatkichini vakt indikatoriga olib borilsa, sana ko'rsatiladi. Agarda sichqonchani chap tugmachasi vakt indikatorida ikki marta bosilsa, **«Svoystva: Data\vremya»** (Xossalar: Sana\vakt) oynasi paydo buladi.

Bu yerda sanani, soatni o'zgartirishingiz mumkin. Oy nomi, yil, soat, daqiqa, soniya raqamlari turgan darchalar yonida pastga, tepaga karagan ko'rsatkichlar (uchburchaklar) bor. Tepaga karagan uchburchak ustida sichqonchani bosilsa, raqam o'sadi, pastga qaragan uchburchak ustida bosilsa — raqam kamayadi.


Sichqonchani klaviatura indikatorida bosib, alifbolar ro'yxatini ochishingiz hamda kerakli: lotin yoki kirillcha alifboga o'tishingiz mumkin.

Agarda sichqoncha ko'rsatkichini **«Pusk»** tugmachasiga olib borsangiz, Sizga ish boshlashni tavsiya etuvchi **«Nachnite rabotu s najatiya etoy knopki»** (Ishni shu tugmachani bosishdan boshlang) degan xabar paydo buladi.

«Pusk» tugmachasi Bosh menyuni aks ettiradi. Menyudan ilovalar va xujjatlarga murojaat etiladi. **«Pusk»** tugmachasi bosilganda, Bosh menyuning quyidagi tasviri paydo buladi). Bosh menyudagi Optsiyalar (bo'limlar, maxsus amaliy dasturlar) quyidagi vazifalarni bajaradi:

«Sozdatg' dokument Microsoft Offise» opsiyasi — Offise ilovalarida yangi xujjat yaratadi;

«Otkrqtg' dokument Microsoft Offise» opsiyasi — Offise ilovalarida yaratilgan va xotirada mavjud bo'lgan xujjatlarni ochib beradi.



«**Programmq**» (Dasturlar) opsiyasi kompyuterlarga o'rnatilgan amaliy dasturlar menyusini ko'rsatadi. Ushbu menyuda foydalanuvchilar tomonidan ishlatiladigan dasturlar ro'yxati, «**Provodnik**» hamda «**Seans MS-DOS**» tizimlari mavjud. Sichqoncha ko'rsatkichini shu opsiya buyicha harakatlantirganingizda ekranda yana bir ro'yxat paydo bo'ladi. Bu dasturlar blokining ro'yxatidir. Siz xoxlagan blokni tanlaganingizda uning ichida joylashtirilgan dasturlar ro'yxati paydo bo'ladi va sichqonchani ulardan birining ustida bossangiz, ushbu dastur ishga tushib ketadi. SHu zaxoti masalalar panelida to'g'ri to'rtburchakli tugmacha (darcha) paydo bo'ladi va u ushbu dastur bajarilayotganini anglatadi. Tugmachaning (darchaning) faollashtirilgan xolati — to'rtburchak «yorug'» xolatda, faollashmagani — «xira yorug'» xolatda bo'ladi. Tugmachani faollashtirish uchun sichqoncha mahlum to'rtburchak ustida bosiladi.

«**Dokumentq**» (Xujjatlar) opsiyasi foydalanuvchilar tomonidan ishlatilgan oxirgi 15 ta xujjat ro'yxatini ko'rsatadi. Ro'yxatdagi xujjatlarni ochish uchun sichqoncha ko'rsatkichi shu xujjat nomi ustida bosiladi. Ro'yxatni kompyuterlar xotirasidan o'chirish uchun «**Nastroyka**» (Sozlash) opsiyasini faollashtiring va «**Panelg' zadach**» (Masalalar paneli) bo'limini tanlab, ustida sichqonchani chap tugmachasini bir marta bosing. Paydo bo'lgan oynaning «**Dokumentq**» (Xujjatlar) qismida «**Ochistitg'**» (Tozalash) tugmachasi mavjud.

«**Nastroyka**» (Sozlash) — Windows-98 muxitini sozlash va uni foydalanuvchi extiyojlariga moslashtirish uchun xizmat kiladi

Ish bajarish tartibi.

Komp'yuterni ishga tayyorlash tartibi quyidagicha:

- stabilizator yoqiladi;
- printer kerak bulsa, u yoqiladi;
- monitor yoqiladi;
- protsessor yoqiladi.

SHundan keyin ekranda tekshiruvchi maxsus programma natijalari, xamda operatsion sistemani ishga tushiruvchi programmalar xaqida ma'lumotlar chiqadi. Operatsion sistema ishga tushgach, u komandalarni berishni taklif qiladi. Kompyuterlardan to'liq foydalanish to'g'ri o'chirishga xam bog'liq

1. Ish stolida kalg'kulyator yorliqini yarating.
2. Ish stolida 'aint grafik muharriri yorlig'ini yarating.
3. 'aint grafik muharriri yorlig'ini «**Korzina**»ga tashlang.
4. Ish stolidagi yorliqlarni mumkin qadar kattalashtiring.
5. Ish stolidagi rasmni o'zgartiring.
6. Peshlavaxani o'zgartiring.
7. Masalalar paneli va bosh menyu bo'limlarini sozlang.
8. Bosh menyudagi «**Programmq**» qismida Ofis dasturlar bo'limini yarating.
9. O'nga Microsoft Office paketining uchta dasturini yozing.
10. «**Dokumentq**» bo'limini tozalab tashlang.
11. Berilgan installyatsion disketalar yordamida kompyuterlarga printerni o'rnating.
11. Masalalar panelidagi soatni olib tashlang va kayta o'rnating.
12. Javoblar yozilgan faylni tayyorlang.
13. Disketada berilgan shriftlarni kompyuterlarga o'rnating.

Nazorat savollari.

1. WINDOWS ekranining asosiy qismlarini aytib bering.
2. WINDOWS dasturining ish stolida nimalar joylashgan?
3. «**Yarlik**» (Yorliq) nima? U qanday tashkil etiladi?
4. Ish stolidan ilovaning belgisi qanday olib tashlanadi?
5. Masalalar panelida nimalar aks ettirilgan?
6. Lotin yoki kirill alifbosiga utish qanday amalga oshiriladi?
7. Fayl yoki jildlarni kidirish qanday amalga oshiriladi?
8. «**Provodnik**» dasturi qanday ishga tushiriladi?

LABORATORIYA ISHI №6

Mavzu: Windows operatsion tizimini uskunalar paneli bilan ishlash.

Ishdan maqsad: : Windows operatsion tizimi xaqida ma'lumot olish ,yuklash va ish stoli ,masalalar paneli menyularida ishlashni o'rganish.

Kerakli jixozlar va dasturlar: SHaxsiy kompyuterlar ,disketalar, Windows operatsion tizimi o'rnatiluvchi fayllar majmuasi.


Nazariy qism.

Hozirda windows operatsion tizimidan keng kulamda foydalanilmokda. Ayniksa uning imkoniyatlaridan foydalanish yaxshi natijalar bermokda.

Kontekst menyu oynaning ixtiyoriy joyida "sichqoncha"ning o'ng tugmasini yoki klaviaturadan Shift + F10 tugmalarini birgalikda bosish yordamida ochiladi. Bu menyu bandlari qaysi element ajratilgani, qanday operatsiya bajarilayotgani va shu kabi otlarga bog'liq xolda o'zgaradi. Yahni xar bir obhekt uchun kontekst menyu o'ziga xos bo'ladi. Misol uchun agar Word matnlarni taxrir qilish dasturida biror so'zni ajratib, "sichqoncha"ning o'ng tugmasi bosilsa, nusxa olish, ko'chirish, qirqish, operatsiyalarini (shriftni, abzatsni formatlashtirish buyruqlarini) tanlash mumkin bo'lgan menyu paydo bo'ladi. SHunday qilib, "sichqonchani"ning o'ng tugmasini bosgach, siz o'sha onda ajratilgan element bilan bo'ladigan extimoli ko'proq operatsiyalar nomlarini o'z ichiga olgan menyuga kirishingiz mumkin. Odatda, Windowsning anhanaviy tizimli menyusidan foydalanishga qaraganda, kontekst menyusidan foydalanishga qaraganda, kontekst menyu yordami bilan buyruqlarni bajarish qulayroqdir.

Windowsda xar bir dastur yoki xujjat o'z oynasiga ega . Oyna bu foydalanuvchi ishlayotgan biror dasturga tegishli bo'lgan ekranning tasviriy ajratilgan bir qismidir. Oynaning kattaligi xam ixtiyoriy , xam belgilangan (bu muloqot oynasi uchun) o'lchamlarda bo'lishi mumkin. Oyna butun ekranni yoki uning bir qismini egallaydi. Bahzan birgina ekranda bir necha dasturlar oynasi ochilganligini ko'ramiz. Oynalar birg'birini berkitib turishi mumkin, ammo qaysi bir oynaga murojaat qilinsa, o'sha oldingi planga siljib oladi. Oynaning yuqori qismi sarlavxa qismi deyiladi. Sar lavxa qismining chap burchagida oyna menyusining belgisi joylashgan. Xar bir dastur o'zining maxsus belgisiga ega . Bu belgida "sichqoncha" bir marta bosilsa, yoki Alt + probelg' (bo'sh tugma) tugmalari birgalikda bosilganda oynaning sistema menyusi ochiladi. Sistema menyusi oyna ko'rinishini o'zgartiruvchi buyruqlarni o'z ichiga olgan. Yana sarlavxa satri ustida sichqonchani o'ng tugmasi bosilganda xam sistema menyuni ochish mumkin.

Sistema menyusi buyruqlari quyidagilar:



Vosstanovitg' – oynani o'z xoliga qaytarish

Peremestitg' – oynani siljitish

Razmer – oyna o'lchamlarini o'zgartirish

Svernutg' – oynani masalalar paneliga taxlab qo'yish

Razvernutg' – oynani kattalashtirish


Zakrqtg' ALT + F4 – oynani yopish

Sarlavxa satri ustida sichqoncha ko'rsatkichi ikki marta ketma-ket bosilsa, dastur oynasi butun ekran bo'ylab yoyiladi. Keyingi ikki marta bosish oynaning avvalgi o'lchamini tiklaydi. Oynini sarlavxa satridan "ushlab" ekran bo'ylab siljitish mumkin(buning uchun oyna butun ekranni qoplamagan bo'lishi kerak).

"Sichqoncha" bilan oyna chegarasini ilib olgan xolda uning o'lchamini gorizontal va vertikal bo'yicha o'zgartirish mumkin. Ammo oyna chegaralari juda ingichka bo'lgani uchun oyna o'lchamini uning pastki o'ng burchagini ilib olib o'zgartirish qulayroqdir. Ushbu burchak "sichqoncha" bilan ilib olish oson bo'lishi uchun maxsus kattalashtirilgan o'lchamda tayyorlangan.

Dastur oynasining menyusi gorizontal menyu deb yuritiladi. U odatda sarlavxa satridan keyin joylashgan bo'ladi. Xar bir dasturning gorizontal menyusi shu dasturning xususiyatidan kelib chiqib o'ziga mos ravishda bo'ladi.

Odatda WINDOWS yordamchi dasturlarga ega rasm). Bu dasturlar taxrirlash, chizish, xisoblash kabi amallarni bajaradi. Bu dasturlar PB ning REKVIZITQ ning dasturlar guruxida joylashgan. Quyida asosiy yordamchi dasturlarning qisqacha tavsifini



keltiramiz.

18.7 - rasm

'aintbrush. Rasm chizadi yoki uni taxrirlaydi. Ularni .BM' yoki .CX kengaytkichli grafikli fayllarda saqlaydi. Bu dastur unchalik ko'p imkoniyatga ega emas, shuning uchun u faqat kichikroq fayllar bilan ishlashi mumkin.

Redaktor Write. Xujjatni tayyorlaydi va printerda chiqaradi. Turli shriftlarga ega. Abzats chegaralarini o'rnatish, formatlash, belgilarni topish va almashtirish imkoniyatiga ega. Mukammal xujjatlarni tayyorlash uchun Microsoft Word dan foydalangan maqsadga muvofiq.

Terminal. Telefon tarmog'i orqali boshqa kompyuterlar bilan aloqa o'rnatadi. Telefon kitobchasi yo'qligi tufayli, raqamlar qo'lda kiritiladi. Yaxshi mukammal aloqa uchun 'ROCOMM 'LUS FOR WINDOWS dan foydalangan mahqul.

CHasq. Ekranga soat tasvirini chiqaradi. Natijada kompyuterlarning joriy vaqtini bilish mumkin. "Vsegda vpered" rejimi tanlasa, soat darchalardan yuqorida ko'rsatib turiladi.

Kalg'kulyator. Murakkab bo'lmagan xisoblarni bajaradi. Dastur chaqirilganda ekranda kalg'kulyator xosil bo'ladi. Sichqoncha tugmachasini bosilganda yoki mos sonni klaviaturadan terilib xisob rejimi tanlanadi. Birinchi rejim logarifmik, trigonometrik funktsiyalarni, o'rta qiymat kabilarni ham xisoblaydi. Xisob natijalarini [Ctrl] + [C] ni bosish yordamida uzatiladi.


Kalendarg'. Ish vaqtini rejalashtiradi. Dastur ishlaganda zarur ishlar xaqida signal yoki axborotni ekranga chiqarish yo'li bilan ogox qiladi. Ish jadvalini qog'ozga printerda chiqarish mumkin.

Kartoteka. Ma'lumotlar bazasi bilan ishlashi mumkin bo'lgan eng sodda ma'lumotlar bazasidir. Bunda ma'lumotlar fayli ikkita yozuvga ega: sarlavxa va ma'lumotlar maydoni. Ma'lumotlarni ketma-ket yoki jadval shaklida ko'rish mumkin. Ma'lumotlar alifbo tartibida keltiriladi.

Bloknot. Matnli fayllar uchun taxrirlagich. Taxrirlashning oddiy amallarini bajaradi. Bu belgini qo'yish, o'chirish, belgini qidirish va xotiraga olish kabilardir.

Zvukozapisg'. Tovushli fayllarni yozish va ijro etish qobiliyatiga ega. Bu faqatgina maxsus tovush kartasi, mikrofon va kolonkalar bo'lgandagina amalga oshiriladi.

«**Nastroyka**» (Sozlash) — Windows-98 muxitini sozlash va uni foydalanuvchi ehtiyojlariga moslashtirish uchun xizmat kiladi.



«**Panelg' upravleniya**» (Boshqarish paneli) bo'limida bahzi qurilmalarning imkoniyatlari, xususan, parametrlarini Siz shaxsiy ehtiyojlaringizga mos ravishda o'zgartirishingiz mumkin. Masalan, ushbu bo'lim yordamida sichqonchanning, klaviaturaning parametrini o'zgartirish mumkin.

«**Printerq**» (CHop etish qurilmalari) bo'limida printerni o'rnatish va sozlash ishlari bajariladi.

Printerni kompyuterlarga ulagandan so'ng kompyuterlarga yangi qurilma xaqida ma'lumot berish va shu ma'lumotni xotiraning biror joyiga yozib qo'yish kerak. Bu jarayon installyatsiya jarayoni deyiladi. «**Nastroyka**» (Sozlash) opsiyasidagi «**Printerq**» (CHop etish qurilmalari) qismini ishga tushiramiz (sichqonchani «**Printerq**» katorida bir marta bosamiz). Xosil bo'lgan oynada «**Ustanovka printera**» (Printerni o'rnatish) katorini faollashtiramiz. Kompyuterlar chikargan muloqot oynalarida berilgan savollarga ketma-ket javob berib boramiz. Tizim disketani so'raganda printer komplektiga kiruvchi installyatsion disketani diskovodga solamiz. Agar kompyuterlar printeriga kerak bo'lgan drayverni (ma'lumotlarni bir ko'rinishdan boshqa ko'rinishga o'giruvchi dastur) o'z xotirasidan topa olsa, Sizning yordamingiz kerak bo'lmaydi. Ish nixoyasida tizim Sizdan bir namoyish varag'ini (probnaya stranitsa) chiqarish zarur-zarur emasligini so'raydi. Ijobiy javobdan keyin bir varakni printeriga solib, natijani olasiz, agar varakdagi ma'lumotni ukiy olsangiz — printerni yaxshi o'rnatibsiz, aks xolda yuqoridagi amallarni yana bir marta bajarasiz.

«**Panelg' zadach**» (Masalalar paneli) bo'limida masalalar panelining shakli tanlanadi. Buning uchun «**Panelg' zadach**» oynasida «**Parametrq paneli zadach**» (Masalalar panelining parametrlari) bo'limi tanlanadi. Foydalanish mumkin bo'lgan opsiyalar:

- «**Raspolojitg' poverx vsex okon**» (Barcha oynalar ustida joylashtirish) opsiyasi Masalalar panelining har doim (Ilovaning oynasi maksimallashtirilgan xolda ham) ko'rinib turishini tahminlaydi.

- «**Avtomaticheski ubiratg' s ekrana**» (Ekrandan avtomatik xolda olib tashlash) opsiyasi Masalalar panelini berkitib turadi. Uni ko'rindigan qilish uchun sichqoncha ko'rsatkichini ekran chetiga, Masalalar paneli joylashgan joyga siljitish kerak.

- «**Melkie znachki v glavnom menyuu**» (Asosiy menyudagi mayda belgilar) opsiyasi «**Pusk**» menyusidagi rasmchalar o'lchovini kamaytiradi.

«**Otobrajatg' chasq**» (Soatni aks ettirish) opsiyasi Masalalar panelining o'ng tomonida soatni aks ettiradi. «**Nastroyka menyuu**» (Menyuni sozlash) bo'limining «**Pusk**» qismida «**Programmq**» (Dasturlar) ro'yxatiga Ilovalar nomini qo'shish hamda olib tashlash mumkin.

«**Poisk**» (Qidiruv) qismi foydalanuvchining kompyuterlarida kidiruv shartlari bo'yicha fayllar va jildlarni, shuningdek, Internet tarmog'ida kompyuterlarni qidirish uchun mo'ljallangan .

«**Spravka**» («Ma'lumot») qismi yordam talab etilganda ishlatiladi. Agar Siz bahzi narsalarni tushunmay turgan bo'lsangiz yoki biror-bir piktogramma, buyruqning ishlash jarayoni esingizdan chiqqan bo'lsa, tizim Sizga, albatta, yordam beradi.

«**Vqpolnitg'**» (Bajarish) opsiyasi ixtiyoriy dastur yoki faylni ishga tushirish uchun ishlatiladi (Agar kerakli dastur «**Programm**» (Dasturlar) qismida bulmasa, bu opsiya juda zarurdir).

«**Zavershenie rabotq**» (Ishni tugatish) qismi ish tugagach, kompyuterlarni bezarar o'chirishni tahminlaydi. Bundan tashqari, ushbu qism kompyuterlarni yangidan ishga tushirish yoki tarmoqda yangidan ro'yxatdan o'tkazish imkoniyatlariga ega.

Ish bajarish tartibi.

Komp'yuterni ishga tayyorlash tartibi quyidagicha:

- stabilizator yoqiladi;
- printer kerak bo'lsa, u yoqiladi;
- monitor yoqiladi;
- protsessor yoqiladi.

SHundan keyin ekranda tekshiruvchi maxsus programma natijalari, hamda operatsion sistemani ishga tushiruvchi programmalar haqida ma'lumotlar chiqadi. Operatsion sistema ishga tushgach, u komandalarni berishni taklif qiladi.

Topshiriqlar.

1. Ish stolidan foydalanishni o'rganish.
2. Ish stolida **moi kompyuterlar** bulimidan foydalanish.
3. Bosh menyudagi «**Programm**» qismida Ofis dasturlar bo'limini yarating. Unga Microsoft Office paketining uchta dasturini yozing.
4. «**Panelg' upravleniya**» ilovasidagi barcha yorliqlar mazmunini tushuntirib bering.
5. «**Panelg' upravleniya**» foydalanib kompyuterlarni sozlashni o'rganing

Nazorat savollari.

1. WINDOWS ekranining asosiy qismlarini aytib bering.
2. Masalalar panelida nimalar aks ettirilgan?
3. Lotin yoki kirill alifbosiga o'tish qanday amalga oshiriladi?
4. «**Nastroyka**» (Sozlash) opsiyasi xaqida nimalarni bilasiz?
5. «**Panelg' upravleniya**» (Boshqarish paneli) yordamida qanday qurilmalarning parametrlarini o'zgartirish mumkin?
6. Windows operatsion tizimi imkoniyatlarini ayting.

LABAROTORIYA ISHI №7

MAVZU: Tasviriy informatsiyalarni kayta ishlashni o'rganish.


Ishning maqsadi: Paint grafik muharririda tasvirlar va shakllar ustida amallar bajarishni o'rganish.

Nazariy qism.

Paint grafik muharriri rastrli tasvirlar bilan ishlashga muljallangan. U quyidagi buyruqlar ketma-ketligini bajarish bilan ishga tushiriladi.

Pusk->Programmq->Standartnqe->Paint

Ayrim xollarda Paint yorlig'i WINDOWS ish stoliga ko'chirilgan buladi. Bunday xolda Paint yorlig'i ustida sichqoncha tugmachasini bosish orqali dasto'rni tezda ishga tushirish mumkin. Shundan so'ng ekranda Paint dasturining ishchi oynasi (darchasi) ochiladi. U bir necha soxalardan iborat.



Oynaning asosiy qismini ish soxasi egallaydi. Uning chap yonida uskunalar paneli joylashgan. Unda tasvir yaratishda ishlatiladigan uskunalar tugmachalari (ramziy belgilari) joylashtirilgan. Ayrim uskunalar tanlanganda panelning pastida ushbu uskunaning xossalarini qo'shimcha sozlash uchun darcha paydo buladi.

Ish soxasining pastida ranglar palitrasi joylashgan. U rasm chizishda ishlatiladigan ranglar tuplamini o'z ichiga olgan.



Ranglar palitrasi ranglari o'zgarib turuvchi kvadratchalardan iborat. Rangni o'zgartirish uchun sichqoncha belgisini tanlangan rang ustiga olib kelib, tugmachasini bosish kerak. Agar chap tugmacha bosilsa asosiy rang (yuqori kvadratcha rangi), o'ng

tugmacha bosilsa fon rangi (quyi kvadratcha rangi) o'zgaradi.


Paint bosh menyusining bo'limlari

Dastur oynasining umumiy ko'rinishi bilan yuqorida tanishib chikkan edik. Endi muharrirning asosiy menyusi bilan tanishamiz.

Paint grafik muharririning menyusi quyidagi bo'limlardan iborat:

«**Fayl**» (Fayl), «**Pravka**» (To'g'rilash), «**Vid**» (Ko'rinish), «**Risunok**» (Tasvir), «**Palitra**» (Palitra), «**Spravka**» (Ma'lumot).

Menyuning dastlabki ikki bo'lim bandlari WINDOWS-98 amaliy dasturlari uchun umumiy bo'lgan vazifalarni bajaradi. «**Fayl**» (Fayl) bo'limi bandlari quyidagi vazifalarni bajarish uchun muljallangan.



«**Pravka**» (To'g'rilash) bo'limi tasvirlar ustida turli amallar bajaradi .

«**Vid**» (Ko'rinish) bo'limida «**Nabor instrumentov**» (Uskunalar majmXasi), «**Palitra**» (Ranglar palitrasi), «**Stroka sostoyaniya**» (Uolat satri), «**Panelg' atributov teksta**» (Matn atributlari paneli) va «**Posmotretg' risunok**» (Tasvirni ekranda kurish) qismlari mavjud bulib,ularning yordamida turli amallarni bajarish mumkin. Masalan, matn harflarini tanlash va o'lchamlarini o'zgartirish uchun «**Panelg' atributov teksta**» (Matn atributlari paneli)ga murojaat etiladi.

«**Risunok**» (Tasvir) bo'limi kumagida tasvirni akslantirish, 90°, 180° va 270° ga rasmni burish (aylantirish) va ogdirish amallari bajariladi. Tasvirning o'lchamlari va ranglanishi «**Atributq**» (Atributlar) bandi yordamida bajariladi.

Palitra bo'limida tasvirlarning ranglanishida kizgishlik, kukishlik, yashillik darajasi va yorkinligi belgilanib, «**Dobavitg' v nabor**» (Tuplamga kushish) tugmasi yordamida yaratilgan yangi rang ranglar palitrasi tarkibiga qo'shiladi .

Ish bajarish tartibi.

Komp'yuterni ishga tayyorlash tartibi quyidagicha:

- stabilizator yoqiladi;
- printer kerak bulsa, u yoqiladi;
- monitor yoqiladi;
- protsessor yoqiladi.


SHundan keyin ekranda tekshiruvchi maxsus programma natijalari, hamda operatsion sistemani ishga tushiruvchi programmalar haqida ma'lumotlar chiqadi. Operatsion sistema ishga tushgach, u komandalarni berishni taklif qiladi.

Komp'yuterdan tuliq foydalanish to'g'ri o'chirishga ham bog'liq.

'aint grafik muharriri dasturi ishga tushiriladi va ekranning chap qismida joylashgan uskunalar majmuasi yordamida tasvirning kerakli elementlarini xosil qilish, ajratib olish, nusxalash yoki o'zgartirish mumkin.

Tasvir o'lchamlarini o'zgartirish.

1. «**Risunok**» (Tasvir) menyusida «**Atributq**» (Atributlar) buyrug'ini tanlang.
2. Tasvirning eni va bo'yining o'lchov birliklarini tanlang.
3. «**SHirina**» (Eni) va «**Vqsota**» (Buyi) maydoniga kiymatlar kiriting.



Tasvirning o'lchamlarini o'zgartirishni pastki o'ng burchakda va tasvirning o'ng va pastki chegaralarining urtasida joylashgan markerlarning joyini o'zgartirish bilan ham amalga oshirish mumkin.

Masshtabni o'zgartirish va to'rni chiqarish.

1. **«Vid»** (Ko'rinish) menyusida **«Masshtab»** buyrug'ini, so'ngra **«Drugoy»** (Boshqasi) buyrug'ini tanlang.

2. **«Variantq»** (Variantlar) guruxida 400%, 600% yoki 800%ni tanlang va OK tugmachasini bosing.

3. **«Vid»** (Ko'rinish) menyusida **«Masshtab»** buyrug'ini, so'ngra **«Pokazatg' setku»** (To'rni ko'rsatish) buyrug'ini tanlang.

To'rni olib tashlash uchun 3-bandni takrorlang va **«Pokazatg' setki»** (To'rni ko'rsatish) buyrug'ida H belgisini olib tashlang yoki **«Vid»** (Ko'rinish) menyusida **«Masshtab»**, so'ngra **«Obqchnqy»** (Odatiy) buyrug'ini tanlang.

Rangli tasvirni ok-qora tasvirga o'tkazish.

1. **«Risunok»** (Tasvir) menyusida **«Atributq»** (Atributlar) buyrug'ini tanlang.

2. **Palitra** guruxida **«CHyorno-belaya»** (Qora-ok)ni tanlang.

Rangli palitra tanlanganda ok-qora obhektlar rangli tasvirlarga aylanmaydi. Fakat yangi tasvirni rangli qilish mumkin.

Tasvir ranglarini kontrast qilish uchun **«Risunok»** (Tasvir) buyrug'idan so'ng **«Obratitg' tsveta»** (Ranglarni aylantirmok) bo'limini tanlash kerak.

Obhekt yoki tasvirni akslantirish va burish.

1. Uskunalar panelida to'g'ri to'rtburchak yoki ixtiyoriy shakldagi soxani ajratuvchi tugmachani tanlang.

2. Akslantirish yoki burish kerak bo'lgan element (obhekt, tasvir yoki ularning biror qismi)ni tanlangan soxa ichiga oling.

3. Uskunalar paneli ostida paydo bo'lgan ikkita belgidan birini tanlang:

a) obhekti shaffof bulmagan obhekt sifatida akslantirish yoki burish uchun yuqoridagi belgi ustida sichqoncha tugmachasini bosing.

b) obhekti shaffof bo'lgan obhekt sifatida akslantirish yoki burish uchun pastdagi belgi ustida sichqoncha tugmachasini bosing.

4. **«Risunok»** (Tasvir) menyusida **«Otrazitg'/Povernutg'»** (Akslantirish/Burish) buyrug'ini tanlang.

5. Kerakli parametrlarni tanlang: **povernutg' sverxu-vniz** (yuqoridan-pastga burish), **sleva na pravo** (chapdan-o'ngga), 90°, 180°, 270°ga.

Tasvirni cho'zish va oKdirish.

1. Uskunalar panelida to'g'rito'rtburchak yoki ixtiyoriy shakldagi soxani ajratuvchi tugmachani tanlang.

2. O'zgartirilayotgan element (obhekt, tasvir yoki ularning biror qismi)ni tanlangan soxa ichiga oling.

3. **«Risunok»** (Tasvir) menyusida **«Rastyanutg'/Naklonitg'»** (Cho'zish/Og'dirish) buyrug'ini tanlang.

4. Cho'zish yoki og'dirish parametrlarini tanlang va ularning sonli kiymatlarini kiriting: **«Rastyanutg' po gorizontali, vertikali (%)»** (gorizontal, vertikal (%)) buyicha cho'zish), **«Naklonitg' po gorizontali, vertikali (%)»** (gorizontal, vertikal (%)) buyicha og'dirish).

5. Uskunalar panelining pastki qismida paydo buladigan belgilardan birini tanlang:

a) obhektni shaffof bulmagan obhekt sifatida cho'zish yoki oKdirish uchun yuqoridagi belgi ustida sichqoncha tugmachasini bosing.

b) obhektni shaffof obhekt sifatida cho'zish yoki og'dirish uchun pastdagi belgi ustida sichqoncha tugmachasini bosing.

Tasvirni olib tashlash.

1. Agar tasvirning biror qismi ajratilgan bo'lsa, unda tashqaridagi ixtiyoriy joyda sichqoncha chap tugmachasini bosing.

2. **«Risunok»** (Tasvir) menyusidan **«Ochistitg'»** (Tozalash) buyrug'ini tanlang.

Eslab koling! Tasvirning ajratilgan qismi uchun **«Ochistitg'»** (Tozalash) buyrug'i ishlamaydi.

O'zgartirishlarni bekor qilish.

«Pravka» (To'g'rilash) menyusidan **«Otmenitg'»** (Bekor qilish) buyrug'ini tanlang.

Foydalanuvchi ketma-ket **«Pravka»** (To'g'rilash) menyusidagi **«Otmenitg'»** (Bekor qilish) buyrug'ini tanlash orqali oxirgi bajarilgan uchta o'zgartirishlarni bekor qilishi mumkin.

Tasvir bo'lagini (fragmentini) ajratish.

1. Uskunalar panelidagi to'g'ri to'rtburchak soxani ajratish tugmachasini tanlang.

2. Sichqoncha ko'rsatkichini sichqonchanning tugmachasini bosgan xolda ajratilayotgan soxa ustidan diagonal buyicha olib uting.

Tasvirni yoki uning biror bo'lagini ajratish uchun uskunalar panelidagi ixtiyoriy soxani ajratish tugmachasidan ham foydalanish mumkin.

Ajratishni bekor qilish uchun ajratilgan soxadan tashqarida, ixtiyoriy joyda sichqonchanning chap tugmachasini bosing.

Tasvir bo'lagini nusxalash yoki joylashtirish.

1. Uskunalar panelida to'g'ri to'rtburchak yoki ixtiyoriy soxani ajratuvchi tugmachani tanlang.

2. Nusxa olinuvchi tasvirning bo'lagini tegishli soxa ichiga oling.

3. Joylashtirish usulini tanlang.

a) Uskunalar paneli ostidagi yuqori belgi ustida sichqoncha belgisini joylashtirib, uning chap tugmachasini bossangiz shaffof bulmagan bulakcha joylashtiriladi.

b) Uskunalar paneli ostidagi quyi belgi ustida sichqoncha belgisini joylashtirib, uning chap tugmachasini bossangiz shaffof bo'lgan bulakcha joylashtiriladi.

4. **«Pravka»** (To'g'rilash) menyusida **«Kopirovatg'»** (Nusxalash) buyrug'ini tanlang.

5. **«Pravka»** (To'g'rilash) menyusida **«Vstavitg'»** (g'uyish) buyrug'ini tanlang.

6. Tasvir bo'lagini kerakli joyga olib borib quying.

Eslab koling! **«Nadpisg'»** tugmachasi bosilgan bo'lsa tasvirni joylashtirib bulmaydi.

Obhektning bir nechta nusxasini joylashtirish uchun CTRL tugmachasini bosib turib, kerakli marta joylashtirishingiz mumkin.

Bajarilgan ishlaringiz yuzasidan xisobot tayyorlang.

Savol va topshiriklar

1. 'aint grafik muharriri qanday ishga tushiriladi?
2. 'aint grafik muharriri darchasi qanday elementlardan to'zilgan?
3. Uskunalar panelidagi elementlar vazifasini aytib bering.
4. Rang qanday o'zgartiriladi?
5. 'aint grafik muharriri Bosh menyusining bo'limlarini sanab bering.
6. **«Fayl»** bo'limi bandlari qanday vazifalarni bajaradi?
7. **«Vid»** (Ko'rinish) bo'limi yordamida qanday amallarni bajarish mumkin?
8. **«Risunok»** (Tasvir) va **«Palitra» (Ranglar palitrasi)** bo'limlarining vazifalarini aytib bering
9. Tasvir o'lchamlarini qanday o'zgartirish mumkin?
10. Tasvir bo'lagi qanday olib tashlanadi?

LABORATORIYA ISHI №8

Mavzu: Ofis programmalar tizimi va uni o'rnatish.

Ishdan maqsad: Ofis programmalar tizimi bilan tanishish va ularni o'rnatishni (ustanovka qilishni) o'rganish.


Kerakli jixozlar va dasturlar: SHaxsiy kompyuterlar ,disketalar, Ofis dasturlari o'rnatiluvchi fayllar majmuasi.



Nazariy qism:

Microsoft Office dasturlari bugungi kunda eng keng tarqalgan dasturlardan hisoblanib, keng ko'lamdagi ofis ishlarini bajarishga mo'ljallangan. Bugungi kungacha Microsoft Office dasturlarning bir qancha versiyalari yaratildi. Eng oxirgi versiyalari bular: Office X', Office 2003 va Office 2007. MS Office dasturlar paketini kompyuterlarga o'rtatish (ustanovka qilish) boshqa dasturlarni o'rnatish bilan deyarli bir xil tartibda olib boriladi. Yahni uni o'rnatish uchun quyidagi ishlar ketma ketligi bajariladi. Oynadan Install tugmasi bosiladi. Natijada o'rnatiluvchi fayllarni arxivdan ochish jarayoni boshlanadi.



Arxivdan to'la ochib bo'lingach SETU'.EXE ishga tushiriladi. SHu bilan ustanoovka jarayoni boshlanadi. Bizning qiladigan ishimiz so'rov oynalariga kerakli javoblarni berib borishdan iborat.






Yuqoridagi ko'rinishdan so'ng kalit so'zlarni kiritishni taklif qiluvchi muloqot oynasi paydo bo'ladi.




so'ng quyidagi rasmdagidek muloqot oynasi paydo bo'ladi. Bu oynadan hech narsani o'zgartirmay "Dalee" tugmachasini chertamiz.

Ushbu muloqot oynasining "Klyuch produkta" bo'limiga 5 qism va 25 belgidan iborat bo'lgan kalit so'zlarni kiritamiz. Biz bu kalit so'zlarni ustanovichniy fayllar joylashgan papkadan olishimiz mumkin. Kalit so'zlar Serial.txt nomli fayli ichida joylashgan bo'ladi. Kalit so'zlarni kiritishda agar xoxlasak klaviatura orqali kiritishimiz yoki nusxasini ko'chirib olib o'tishimiz mumkin. Kalit so'zlarni to'la va to'g'ri kiritganimizdan so'ng "Dalee" tugmachasi aktivlashadi. "Dalee" tugmachasini chertganimizdan



Natijada quyidagi muloqot oynasi paydo bo'ladi.



Bu muloqot oynasining "Ya prinimayu usloviya litsenzionnogo soglasheniya" yahni "Men litsenziyali xizmatlarni qabul qilishga roziman" bo'limiga belgi qo'yamiz. Natijada bu yerda xam "Dalee" tugmachasi aktivlashadi. "Dalee" tugmachasini chertganimizdan so'ng o'rnatish ko'rinishlarini tanlashga imkoniyat beruvchi quyidagi muloqot oynasi paydo bo'ladi.


Yuqoridagi muloqot oynasidan ko'rib turganingizdek o'rnatishni to'rt ko'rinishda amalga o'yirish mumkin ekan. Bular:

Obqchnaya ustanovka – odatdagiday o'rnatish;
 Polg'naya ustanovka – xammasini o'rnatish;
 Minimalg'naya ustanovka – minimal xolatda o'rnatish;
 Vqborochnaya ustanovka – tanlab o'rnatish;




Biz o'zimizga kulay ko'rinishdagi o'rnatishni tanlab olamiz. SHuni aloxida tahkidlab o'tish mumkinki ko'pincha "Obqchnaya ustanovka – odatdagiday o'rnatish" ko'rinishi tanlanadi. Ko'rinishni tanlab olganimizdan oynaning pastki qismida joylashgan o'rnatish joyini belgilash qismidan qaerga o'rnatishni belgilashimiz mumkin. Odatda bu yerga o'zgartirish kiritmaymiz chunki avtomatik tarzda qaerga o'rnatish to'g'ri ko'rsatilgan bo'ladi. Agar o'zgartirmoqchi bo'lsangiz "Obzor" tugmachasini chertib kerakli joyni


ko'rsatishingiz mumkin. Kerakli belgilashlarni kiritib bo'lganimizdan so'ng yana "Dalee" tugmachasini chertamiz. "Dalee" tugmachasini chertganimizdan so'ng yangi xisobot muloqot oynasi paydo bo'ladi. Yahni qaysi dasturlarni o'rnatayotganini yana bir bora ko'zdan kechirish imkoniyatini beradi.



Xammasi to'g'riligiga ishonch xosil qilganimizdan so'ng "Ustanovitg" – "O'rnatish" tugmachasini chertamiz. SHu bilan 2-3 daqiqadan so'ng o'rnatish nixoyasiga yetadi.



Yuqoridagi muloqot oynasidan "Gotovo" – "Tayyor" tugmachasini chertamiz. Endi biz kompyuterlarimizga dasturni o'rnatilganini tekshirib ko'rishimiz mumkin. Buning uchun "Pusk" → "Vse programmq" → "Microsoft Office" bo'limini ko'rishimiz mumkin. Quqidagi rasmga qarang.



Ish bajarish tartibi.

Kompyuterlarni ishga tayyorlash tartibi quyidagicha:

- stabilizator yoqiladi;
- printer kerak bo'lsa, u yoqiladi;
- monitor yoqiladi;
- protsessor yoqiladi.

SHundan keyin ekranda tekshiruvchi maxsus programma natijalari, hamda operatsion sistemani ishga tushiruvchi programmalar haqida ma'lumotlar chiqadi. Operatsion sistema ishga tushgach, u komandalarni berishni taklif qiladi.

Topshiriqlar.

1. Nazariy qism bilan tanishib chiqing.
2. Kompyuterlarni ishga gushiring.
3. Microsoft Office dasturlar paketini o'rnatiluvchi (ustanovichniy) fayllarini o'z kompyuterlaringizga ko'chirib oling.
4. Agar arxivlangan bo'lsa arxivdan oching.
5. Setu'.exe faylini ishga tushiring va o'rnatishni nazorat qiling.
6. O'rnatib bo'lgach tekshirib ko'ring.

Nazorat savollari.

1. Microsoft Office dasturi to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Microsoft Office dasturlariga qanday dasturlar qiradi?
3. Microsoft Office dasturlarining qanday versiyalarini bilasiz?
4. Setu'.exe nima ish bajaradi?

LABORATORIYA ISHI №9

Mavzu: Matnli informatsilarni kayta ishlash va nashrga tayyorlashni o'rganish.

Ishning maqsadi: Word matn muharirida xujjatlar yaratish ,saqlash matnlar kiritish va taxrirlash,matni bichimlash va jadvallar tashqil etish usullarini o'rganish.

Kerakli jixozlar va dasturlar: SHaxsiy kompyuterlar, Microsoft Word dasturi,chop etish qurilmalari, fleshkalar.

Nazariy qism.

Avvalo matn nimalardan tashqil topadi, uning elementlari qaysilar kabi savollarga javob berib utamiz.

Matn — simvol, so'z, kator, parcha, abzats (xat boshi), saxifa kabilardan tashqil topgan.

Simvol (belgi) — bu matnning eng kichik elementidir. U o'lchov, yozilish usuli (oddiy, kalin, yozma, chizikli), rang, shrift, pozitsiya (yozilish o'rni) kabi xususiyatlarga ega.

Simvollar ketma-ketligi quyidagi obyektlarni tashqil etadi: so'z, parcha, abzats, matn saxifasi.

So'z — bu ikki tomondan ajratuvchi simvollar (bo'sh simvol, nuqta, vergul va x.k.) bilan chegaralangan simvollar ketma-ketligidir. Keltirilgan xususiyatlarga qo'shimcha: birinchi (oxirgi) simvol mavjudligi hamda simvollar soni cheklanganligi (so'z o'zunligi).

Kator — shu nomli kod bilan tugagan simvollar ketma-ketligi. Qo'shimcha xususiyatlar: kator boshi va oxiri, matnda kator tartib raqami, kator o'zunligi, katorning chap va o'ng chegarasi mavjudligi.

Parcha — matnning belgilab olingan qismi.

Abzats — abzats belgisi bilan ajratilgan simvollar ketma-ketligi. Abzats simvoli chop etilmaydi, matnga ENTER tugmachasi bosilganda kiritiladi. Abzatsning qo'shimcha xususiyatlari: chap va o'ng chegaralari, abzats boshidagi siljish, katorlar soni, katorlar urtasidagi interval, varakdagi joylanishi.

Saxifa — bu saxifa kodi bilan tugallanuvchi katorlar tuplami. Qo'shimcha xususiyatlari: saxifa tartib raqami, saxifadagi katorlar soni.

Asosiy global objekt — matnning o'zidir. Qo'shimcha xususiyatlari: matn boshi va oxiri, matndagi katorlar soni, matnning varakda joylanishi.

Kompyuterlarga matn kiritish koidalari quyidagicha:

§ Simvol kursor turgan joyga kiritiladi.

§ Sichqoncha ko'rsatkichi kursorni kerakli joyga tez olib borish uchun ishlatiladi va matn terish jarayonida katnashmaydi.

§ **ENTER** tugmachasini fakat abzats oxirida bosish zarur.

§ Matnni urtaga joylashtirish, abzats siljishini qo'yish va matnni bir tomonga surish uchun «**Probel**» (Bo'sh joy) tugmachasidan foydalanish tavsiya etilmaydi.

§ Matn terish jarayonida uni tez-tez xotiraga saklab qo'yish lozim.

§ Saxifalarga tartib raqami klaviaturadan kiritil maydi.

§ Nuqta va verguldan oldin bo'sh simvol qo'yish tavsiya etilmaydi.

Bitta bo'sh kator kiritish uchun kursorni oldingi katorning oxirgi simvalidan keyin qo'yib, ENTER tugmachasi bosiladi.

Bitta katorni ikkiga bo'lish uchun yangi kator boshlanishi kerak bo'lgan pozitsiyaga kursorni olib borib, ENTER tugmachasi bosiladi.

Ikkita katorni birlashtirish uchun kursorni birinchi katorning oxirgi simvolidan keyin qo'yib, Delete tugmachasi bosiladi.

Word matn muharririda yangi xujjatlar yaratish bir necha usullar bilan amalga oshiriladi:

1. Standart piktogrammalar katorida piktogrammasi ustida sichqoncha bosiladi. Ekranida «toza qog'oz» paydo buladi. Yangi xujjat ochilishini oynaning sarlavxa katorida Dokument so'zi yonidagi tartib raqamining o'zgarishidan bilamiz.

2. Xuddi shu amalni **«Fayl»** menyusidagi **«Sozdatg'»** (Yaratish) buyrug'i orqali ham amalga oshirish mumkin. Bu xolda ekranda qo'yidagi oyna namoyon buladi.


Mahlumki, yozuv mashinkasida matn yozilganda qog'ozga chegara qo'yiladi. Bunda karetkka mahlum joyga kelgach, katordan katorga avtomatik ravishda utadi. SHo'nga uxshash amallarni WORDda bajarish uchun **«Fayl»** menyusidan urin olgan **«Parametrq stranitsq»** (Saxifa parametrlari) buyrug'ini ishlatish lozim.

Namoyon bo'lgan oynaning **«Polya»** qismida qog'ozga chegaralar (yuqori, quyi, chap, o'ng tomonlardan) qo'yiladi.

«Pereplyot» darchasida mukovalash uchun joy koldiriladi. **Ot kraya do kolontito'la** qismida saxifaning chetidan to saxifaning tartib raqami yozilishi kerak bo'lgan joygacha masofa ko'rsatiladi.

«Zerkalg'nqe polya» yozuvi oldida g' belgi qo'ysangiz, xujjatda saxifalar kitobdagi kabi bir-biriga aynan aks etadi.

Fayl menyusidagi **«Parametrq stranitsq»** (Saxifa parametrlari) oynasining **«Polya»** (Maydon) qismida chegaralarni belgilash kerak. SHundan so'ng **«Primenitg'»** (Qo'llash) ro'yxatidan **«K vqdelennomu tekstu»** (Belgilangan matnga) parametrini tanlash lozim. Belgilangan betlardan oldin va keyin avtomatik tarzda bo'lim o'zilish belgilari qo'yiladi. Har doim bir xil chegara qo'llasangiz, faoliyatingiz boshida bir marta chegaralarni o'rnatib, **«Pomolchaniyu»** (Aloxida ko'rsatmasiz) piktogrammasini sichqoncha yordamida faollashtirib qo'ying. Keyingi xujjatlar yaratish jarayonida saxifa chegaralari to o'zingiz o'zgartirish kiritmaguningizcha o'zgarmsdan turadi.




Yuqoridagi oynaning **«Razmer bumagi»** (qog'oz o'lchami) qismida qog'oz o'lchami, uning xolati (gorizontal joylashuv, vertikal joylashuv) o'zgartiriladi.

A4 bichimli (210x297mm) qog'ozdan (Siz kurs ishlari, referatlar, diplom ishlari uchun ishlatadigan qog'oz) ko'p foydalaniladi. SHu qog'ozning teng yarmi — A5 bichimni, ikkitasi esa — A3 bichimni tashqil etadi.

qog'ozga matnni to'g'ri va kundalang xolatlarda chop etish mumkin. Buni **«Orientatsiya»** qismida aniqlab ketish zarur. **«Knijnaya»** — to'g'ri chop etishni, **«Alg'bomnaya»** — kundalang chop etishni anglatadi.

Yozuv mashinkasidan farqli o'laroq, kompyuterlarda bir necha xil shriftlar mavjud. Bichimlash panelida joylashgan



darchasi yonidagi uchburchakni bosib shriftlar ro'yxatini chikarib, kerakli shrift tanlanadi va u faollashtiriladi. Mazkur darchaning yonida shriftlar o'lchovi darchasi joylashgan. Undan

yuqoridagi usul bilan kerakli o'lchovni tanlab olib, so'ng alfavit turini tanlash kerak.

Xujjatlarni saqlash.

Xujjat tayyor bo'lgandan so'ng uni saklab qo'yish lozim. Buning uchun **«Fayl»** menyusidagi **«Soxranitg' kak»** buyrug'ini ishlatamiz:

Agar xujjatni disketada saqlash talab etilsa, ro'yxatdan disk nomi tanlab olinadi (Disk 3,5 A).

«Imya fayla» (Fayl nomi) darchasida xujjatga nom beriladi. Uni kirill yoki lotin alifbosida berishingiz mumkin. Nom bir so'zdan, jumladan, gapdan, sondan iborat bo'lishi mumkin. **«Tip fayla»** (Fayl turi) darchasida fayl turi tanlanadi. U doc, rtf, html fayl yoki Word muharririning oldingi versiyalarida saklanishi mumkin.

Barcha zarur ma'lumotlar kiritilgandan so'ng, **«Soxranitg'»** (Saqlash) tugmachasi bosiladi. Agar biror xatolik utib ketgan bo'lsa, **«Otmenga»** (Bekor qilish) tugmachasi bosiladi.

«Papka» (Jild) darchasidan keyin joylashgan piktogrammalar quyidagilarni bildiradi:

- bir pog'ona yuqoriga utish, yahni jildning ichidan yuqori katlamga chikish;
- **«Izbrannoe»** («Tanlangan») jildini tanlash;
- yangi jild yaratish;
- jild va fayllarni ro'yxat ko'rinishida tasvirlash;
- jild va fayllarni jadval ko'rinishida (xajmi, yaratilgan sanasi, vakti va x.k.) tasvir etish;
- jild va fayllarning xususiyatlarini aks ettirish;
- buyruqlar va rejimlar piktogrammasi.

Mazkur xujjatga ishlov berish tugaganidan keyin uni yopish zaruriyati tug'iladi. Buning uchun **«Fayl»** menyusidagi **«Zakrqtg'»** (Yopish) buyrug'ini faollashtirish lozim.

Dastur ishini tugatmasdan barcha ochilgan fayllarni yopish uchun SHIFT tugmachasini bosib, **«Fayl»** menyusida **«Zakrqtg' vse»** (Barchasini yopish) buyrug'ini faollashtirish kerak.

Xujjatni taxrirlash

Mavjud xujjatni taxrirlash uchun WORD dasturida aloxida buyruqlar tuplami kiritilgan. Ularning barchasi **«Pravka» (To'g'rilash)** menyusida jamlangan.

Rasmlardan yoki matndan nusxa olish, joyini o'zgartirish mumkin. Matn va rasmlarni bir xujjatning o'zida, shuningdek, bir xujjatdan boshqasiga, xatto boshqa ilovaga ko'chirish va ulardan nusxa olish mumkin. Bu ishlarni yoki amallarni bajarishdan oldin matn va rasmlar belgilab olinadi.

• kolontitullarni belgilash uchun **«Vid»** (Ko'rinish) menyusidagi **«Kolontitulq»** buyrug'ini tanlash lozim; **«Razmetka»** (Belgilash) xolatida turib, kolontitullar matni ustiga kursorni olib kelib, sichqonchani chap tugmachasini ikki marta bosish kerak; so'ng kolontitulning chap chetiga kursorni olib kelib, u o'ngga yunaltirilgan strelka shaklini kabul kilgandan so'ng, sichqonchani chap tugmachasini uch marta bosish kerak;

Amallarni bekor qilish.

Bekor kilinishi zarur bo'lgan amallar ro'yxatini chiqarish uchun **«Otmenitg'»** (Bekor qilish) tugmachasi oldidagi uchburchakli ko'rsatkich bosiladi.

Oxirgi bekor kilingan amalni kayta bajarish uchun **«Otmenitg'»** (Bekor qilish) tugmachasi bosiladi.

Belgilangan parchani ko'chirish uchun **«Vqrezatg'»** (Kirkib olish) tugmachasini bosish lozim.

Belgilangan parchadan nusxa olish uchun **«Kopirovatg'»** (Nusxa olish) tugmachasini bosish lozim.

Agar matn yoki rasmdan boshqa xujjatga nusxa olish kerak bo'lsa — shu xujjatga utiladi. Kursorni matn yoki rasm kiritiladigan joyga qo'yiladi. «**Vstavitg'**» (Kiritish) tugmachasi bosiladi.

«**Pravka**» (To'g'rilash) menyusidagi «**Ochistitg'**» (Tozalash) va «**Vqdelitg' vsyo**» (Hammasini belgilash) buyruqlarida tuxtalib utamiz. «**Ochistitg'**» buyrug'i belgilangan matnni, jadvalni, rasm, diagrammani olib tashlaydi. «**Vqdelitg' vsyo**» buyrug'i butun matnni, uning ichiga kirgan jadval, rasm, diagrammalarni belgilab beradi.

«**Zamenitg' na**» (ga almashtirish) darchasiga yangi matn parchasi kiritiladi va «**Zamenitg'**» (Almashtirish) tugmachasi bosiladi. Agar matn parchasi taxrir kilinayotgan matnning barcha uchragan joyida yangi matn parchasiga almashtirilishi talab etilsa — «**Zamenitg' vsyo**» (Hammasini almashtirish) tugmachasi bosiladi.

«**Pereyti**» (Utish) buyrug'i — kursorni talab etilgan obhekt (biror aniq raqamli saxifa, izox, kator va x.k.)ga olib utadi.

Matnni bichimlash

Matnni taxrirlash jarayonida siz, albatta, bichimlash masalalariga duch kelasiz. Bichimlash deganda — matn mahnosini o'zgartirmay turib, uning shaklini o'zgartirish tushuniladi. WORD muharririda bichimlash buyruqlari majmui Format menyusida jamlangan.

Menyudagi birinchi buyruq «**SHrift**»dir. Buyruq bajarilgandan so'ng namoyon bo'lgan oynadan ko'rinib turibdiki, u «**SHrift**», «**Interval**» va «**Animatsiya**» kabi uch qismdan iborat.

SHrift qismida matnda kullaniladigan shrift turi, o'lchami, rangi, yozilish shakli (J, K, CH) tanlanadi. Undan tashqari, indekslnari yuqorida yoki pastda yozish, barcha harflarni katta qilib yoki soya bilan yozish va boshqa amallar bajariladi. Barcha parametrlar tanlangandan so'ng OK tugmachasi bosiladi.

Interval qismida harflar urtasidagi masofa, ularning siljishi o'zgartiriladi.

Animatsiya qismida matnning belgilangan qismiga animatsion effektlar kullaniladi. Buning uchun ro'yxatdagi animatsiya effektlaridan biri tanlanib, so'ng OK tugmachasi bosiladi.


Keyingi buyruq «**Abzats**» (Xat boshi) buyrugidir.

Uning yordamida belgilangan abzatsning katorlari orasidagi masofa ro'yxatdan tanlab olish yo'li bilan o'zgartiriladi. SHu bilan birga matnning chap va o'ng chegara buyicha,

markazda, butun en buyicha tekislash piktogrammasi  hamda chap va o'ngga siljishlar piktogrammasi ham **ishlatiladi**.



«**Spisok**» (Ro'yxat) buyrug'i bajarilishi natijasida belgilangan abzatslarga tartib rakamlari yoki markerlar (biror belgi) kushib qo'yiladi.



Buning uchun namoyon bo'lgan oynada «**Izmenitg'**» tugmachasi bosiladi. Natijada oyna ko'rinishi o'zgaradi va unda Marker tugmachasini bosib, xoxlagan belgini tanlab olish kifoya. Tartib raqamlarini o'rnatishda uxshash amallar bajariladi.

«**Granitsq i zalivka**» (CHegara ichidagi rang) buyrug'i belgilangan matn, abzats, saxifa, jadval yoki rasimga chegara qo'yib, chegara ichidagi rangni o'zgartirish imkonini beradi.

«**Stranitsa**» (Saxifa) qismida yuqorida ko'rsatilgan barcha amallar saxifaga kullaniladi.

«**Zalivka**» (CHegara ichidagi rang) bo'limida rang, naksh, nakshning rangi tanlanadi.

Bu yerda ham «**Obrazets**» (Namuna) darchasida barcha amallar natijasi aks ettiriladi. Mazkur oynada hamma o'zgarishlar kiritilganidan keyin, OK tugmachasi bosiladi.


«**Kolonki**» (Ustunlar) buyrug'i bir ustunlik matnni bir necha ustunlik matnga aylantirish imkonini beradi.

«**Kolonki**» buyrug'i yordamida kolontitullar, izoxlar, ramkalar ichidagi matnni ustunlar ko'rinishida tasvirlash mumkin emas. Bunday xollarda «**Tablitsa**» (Jadval) menyusidan foydalanishni tavsiya etamiz.

Jadvallar yaratish

Jadval vertikal va gorizontal chiziklardan iboratdir. Ular kesishib, panjara (reshetka) xosil kiladi. SHu panjara ichidagi har bir katakcha yacheyka deyiladi.

Kator — bu gorizontal chizikda joylashgan yacheykalardir, ustun — bu vertikal chizikda joylashgan yacheykalardir.



Jadvallardan sonlarni ustunda tekislash uchun foydalanish mumkin; bu xolda ularni saralash va ular ustida xisoblash amallarini bajarish soddalashadi. SHuningdek, jadvallarni matnning abzatslarini va ularga mos rasmlarni tekislashda ishlatish mumkin. Bo'sh jadvalni yaratish uchun

«**Dobavitg' tablitsu**» (Jadval kushish) piktogrammasini (u standart uskunalar panelida joylashgan) bosish kerak, so'ng zarur bo'lgan katorlar va ustunlar sonini sichqoncha ko'rsatkichini siljitish yo'li bilan belgilash kerak.

Amaldagi matnni jadvalga aylantirish uchun uni ajratib olib, so'ng «**Tablitsa**» (Jadval) menyusida «**Preobrazovatk' v tablitsu**» (Jadvalga aylantirish) buyrug'ini tanlash kerak.

Jadvaldan yacheykalarni, katorlarni va ustunlarni yo'qotish.

Yacheykalarni o'chirishdan oldin yacheyka belgilarini aks ettiruvchi rejimni yokish zarur. Katorlarni o'chirishdan oldin kator belgilarini aks ettiruvchi rejimni yokish zarur.

O'chirilishi zarur bo'lgan yacheyka, ustun va kator belgilanadi. «**Tablitsa**» (Jadval) menyusida «**Udalitg' yacheyki**» (Yacheykalarni yo'qotish),

«**Udalitg' stroki**» (Katorlarni yo'qotish) yoki «**Udalitg' stolbtsq**» (Ustunlarni yo'qotish) buyruqlari tanlanadi.

Jadvalni o'zgartirish uchun anjomlar panelidagi «**Tablitsq i granitsq**» (Jadvallar va chegaralar) panelini ishlatish kerak. Bu anjomlar panelini chiqarish uchun standart anjomlar panelida «**Tablitsq i granitsq**» (Jadvallar va chegaralar) tugmachasini bosish kerak.

Jadval chegaralarini o'zgartirish yoki yo'qotish uchun «**Tablitsq i granitsq**»



(Jadvallar va chegaralar) panelida chegaralarning yangi turini, shuningdek, enini, chizikning turi va rangini tanlash lozim, so'ng «**Narisovatk' tablitsu**» (Jadvalni chizish) piktogrammasi

yordamida yangi chegarani chizish kerak. Chegaralarning yangi turini bir nechta yacheykaga tez qo'llash uchun yoki chegaralarni tez o'chirish uchun paneldagi chegaralar palitrasidan foydalanish mumkin (Chizik turi, Chizik eni va Chegara rangi piktogrammalari).

Bahzi yacheykalarga diqqatni karatish uchun ular ichini turli ranglarga buyash lozim. Yacheykalarning chegarasi va ichidagi rangining standart kombinatsiyasini tanlash uchun «**Avtoformat tablitsq**» (Jadval avtobichimi) tugmachasi bosilishi kerak.

«**Tablitsq i granitsq**» (Jadvallar va chegaralar) uskunalar panelidagi tugmachalardan murakkab jadvallarni yaratish va taxirlashda foydalanish qulayroq.

Ish bajarish tartibi.

